

Nyutonova Xilola Lochinbekovna
Urganch Ranch texnologiya universiteti
pedagogika va aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi
UDK:37.026.1

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH – IJTIMOY PEDAGOGIK ZARURAT

Annotatsiya: Maqolada Behbudiy merosida ilm-ma'rifat, axloq, san'atning yoshlar ma'naviy madaniyati, milliy o'zlikni anglashga ta'siri masalalarining yoritilishiga e'tibor qaratilgan, asarlarining zamonaviy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'naviy madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ta'lim, tarbiya, madrasa, drama, san'at, axloq, madaniyat, milliy o'zlik, teatr, jadid maktablari.

ИЗУЧЕНИЕ ТВОРЧЕСТВА МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ-СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация: В статье акцентируется влияние знаний, нравственности, искусства на духовную культуру молодежи, понимание национальной идентичности, наследие Бехбуди, а также показано современное значение его произведений. Анализируется вклад Махмудходжи Бехбуди в развитие духовной культуры.

Ключевые слова: джадидизм, образование, обучение, медресе, драматургия, искусство, этика, культура, национальная идентичность, театр, джадидские школы.

THE STUDY OF MAHMUDHOJA BEHBUDI'S CREATIVITY IS A SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY

Abstract: In the article, the influence of knowledge, morality, art on the spiritual culture of young people, the understanding of national identity is focused on Behbudi's legacy, and the modern significance of his works is shown. Mahmudhoja Behbudi's contribution to the development of spiritual culture is analyzed.

Key words: Jadidism, education, training, madrasa, drama, art, ethics, culture, national identity, theater, Jadid schools.

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev parlamentga qilgan Murojatnomasida jadidchilik harakati, ma'rifatparvar boblolarimiz me'rosini chuqur o'rganishimiz kerakligi haqida alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan alloma va adib, buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasining keng nishonlanishiga ham alohida e'tibor qaratdi.

Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyaning 5-bandida Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish masalasi belgilangan. Mazkur tadqiqot ishi ham belgilangan ushbu vazifalarni amalga oshirishga katta xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-sentabrdagi "Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida"gi farmonida, milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shgan mutafakkir Mahmudxo'ja Behbudiy "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

Bu albatta yurtimizda ulug' ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularga hurmat ko'rsatish kabi xayrli islohatlar amalga oshirish va albatta allomaning ilmiy merosini yanada chuqur o'rganishga keng yo'l O'zbekiston Milliy universiteti Zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb masalalari ko'rsatilgan. Shu maqsadda mazkur tadqiqot ishimiz

belgilangan hayrli vazifalarni ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi shubhasiz. Yuksak ma'naviyat va axloqiy barkamollik har qanday xalq, har qanday davlat rivojining bosh mezonini bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamlil islohotlarimizning yaqqol ifodasidir", – deb ta'kidlashlari bejiz emas.[1]

Mavzuning dolzarbligi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining zahmatli hayot yo'li, semahsul ijodi va fojiali taqdiri bilan ham har bir vatandoshimiz uchun ibrat maktabidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida o'tgan asrning 20-yillaridayoq mahalliy matbuotda Sadridin Ayniy, Xoji Muin, Vadud Mahmud, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e'lon qilingan edi. Shuningdek, Behbudiyning hayot yo'li va ijodini o'rganishda etnograf G.Andreyev, Ahmad Zaki Validiy To'g'onning "Esdaliklar"i va turkiyalik tadqiqotchi Ibrohim Yorqinning ma'lumotlari muhim manbalar sirasiga kiradi. Sobiq sovet davlatida stalincha qatag'on siyosatining fosh etilishi bilan Behbudiy va jadid adabiyotini o'rganishni birinchilardan bo'lib filologiya fanlari nomzodi Solih Qosimov boshlab bergan edi.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng Behbudiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan qator materiallar chop etila boshladi. Bunda B.Qosimov, A.Aliev, N.Karimov, S.Ahmedov, D.Alimova, Sh.Turdiyevlarning ilmiy izlanishlarini keltirib o'tish mumkin. B.Qosimov tomonidan nashrga tayyorlangan Behbudiyning "Tanlangan asarlar"i D.A.Alimova va D.A.Rashidovanning "Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri" monografiyasi, N.Karimovning "Mahmudxo'ja Behbudiy" kabi asarlari shular jumlasidandir. Behbudiyning "Tanlangan asarlar"ining kirish so'zi "Karvonboshi" deb nomlangan bo'lib, B.Qosimov tomonidan uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari davomida to'plangan ma'lumotlari asosida yozilgan. Asarda M.Behbudiyning hayoti, kelib chiqishi, oilaviy muhiti, Haj safarlari va sayohatlari, shuningdek, jadid maktablarini tashkil qilishdagi faoliyati keltirib o'tilgan.

Maxmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Xoji Muin ma'lumotlari asos qilib olinadi. Uning fikricha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniyl oilasida dunyoga kelgan.

Darvoqe, Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ham ma'lumotlar nihoyatda kam. U dastlab Samarqand madrasasida, so'ngroq Buxoroda yaxshigina tahsil ko'rgan. An'anaviy madrasa ilmini puxta egallagan Behbudiy 1915-yilda etnograf G.Andreev savollariga javob berar ekan, madrasa tahsilini alohida tilga olgani ma'lum. O'sha davrda ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin.

Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Ikki emas, to'rt til lozim" ("Oyna" jurnali 1913 yil. 1-son, 12-14-betlar) maqolasida yoshlarning ilm egallashida ko'plab tillarni egallashi muhim ekanligini ta'kidlaydi. "Biz Turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdir. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidir. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru-tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni dars kitobi - arabiy, muallim – turkiy, taqriru-tarjimaning forsiyligi ajibdur".Behbudiy rus tilini bilish davlat ishlari va hukumat maktablarida o'qish uchun zarurligini, vatan va millat uchun xizmat qilish, davlat lavozimlariga ko'tarilish esa dunyoviy ilmsiz bo'lmasligi ta'kidlaydi. "Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqirir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy. Arabiy til din uchun na darajada lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur".

Mahmudxo'ja Behbudiyning "A'molimiz yoinki murodimiz", "Favqulodda takfir", "Bizni hollar va ishlar", "Zo'raki boy", "Jaholat dardlaridan", "Yoshlarga murojaat" kabi maqolalarida yoshlarga ta'lim berish, zamonaviy maktablarda o'qitish, xorijiy mamlakatlardagi oliy o'quv yurtlarida ilm olishga da'vat etgan. Buning uchun hatto hozirda ham biz uchun katta muammo

bo'lib kelayotgan, ortiqcha isrofgarchilik bilan o'tkazilayotgan to'y va ma'rakalarni qisqartirish kerakligini ta'kidlaydi. Behbudiy kabi ko'plab jadidlar ham millatimizning isrofgarchilik bilan o'tkaziladigan to'y va ma'rakalariga qarshi kurashishgan, lekin ming afsuski, oradan yuz yillar o'tib ham bu illatdan millatimiz qutula olmadi. Hozirgi kunda ham yillar davomida ishlab topganimizni 1-2 kunlik to'yda orzu-havas deb sovurib yuboryapmiz. Holbuki ushbu mablag'lar evaziga farzandlarimizga til, axborot texnologiyalari va boshqa fanlarni mukammal o'rgatish imkoniyati mavjuddir. Mana shu ehtiyoj va zarurat Behbudiyning teatr va matbuot sari boshladi. "Padarkush" shu tariqa maydonga keldi. Biroq uning dunyo ko'rishi oson kechmadi. Bunga sabab: birinchidan, chor hukumati mustamlaka Turkistonining ma'rifat yo'liga kirib, o'z huquqini tanishidan mafaatdor emas edi.

"Padarkush" - o'zbek dramachiligining hamma yakdil e'tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholaydilar.

Muallif "Milliy fojia" deb atagan, 3-parda 4 manzarali bu drama hajman juda ixcham, mazmunan nihoyatda soda va aniq. U jaholat va nodonlik, o'qimagan bolaning buzuq yo'llarga kirib, o'z otasini o'ldirgani haqida hikoya qiladi. Ma'rifatni o'ylamagan boyning Toshmurod ismli o'g'li bor. O'g'li o'qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o'g'lini o'qitmaydi, oqibatda u ko'cha bezorilariga qo'shiladi. Maishatxonada puli yetmay sheriklarini tunda uyiga boshlab keladi. Boy uyg'onib ularni sezib qoladi. Boyni o'ldirib, pulini olib ketadilar.

Behbudiy "Yoshlarga murojaat" maqolasida ("Oyna" jurnali. 1914 yil, 21-son 390-391-betlar) hukumat idoralari, banklar va korxonalarda ishlaydigan, zamonaviy ilm-fandan xabardor yoshlarga alohida murojaat bilan chiqib, o'z farzandlari ta'lim-tarbiyasiga e'tibor berishni so'raydi. "Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'g'lingizni zamoncha o'qimog'iga sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturg'on oqchalarni o'qumoq yo'liga sarf qilsangiz!" [1.169]. Behbudiyning "Millatlar qanday taraqqiy etarlar" ("Samarqand" gazetasi. 1913 yil, 30 iyul) maqolasida bir qancha xalqlarning maorif va ta'lim tizimi, ularning usul va vositalari tahlil qilingan. Bu millatlarning ulamolari, ziyoli va olimlari o'z millatiga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, masjidlarda ilm olishga da'vatlar qilishi, pandnasihat va maslahatlar berilishi, maktab va madrasalarda dunyoviy ilm-fanlardan ta'lim berilishini ta'kidlagan. Kavkaz, Qrim va Qozondagi musulmon boylari, ulamo va qalam ahlari o'z xalqi ta'lim-tarbiyasi uchun ko'p harakat qilishlari, fondlar tashkil etishlari va hatto o'z mablag'lari evaziga millat yoshlarini o'qitayotganini havas bilan e'tirof etgan. "Boshqa millatlarning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe ekan, bizni ulamo bil'aks avomg'a tobedur? Buning oxiri xarobdur". Mahmudxo'ja Behbudiy millatimizni ilm-fanni o'rganishga da'vat etib, uning yo'llarini ham ko'rsatib beradi. Zamona ilmisiz taraqqiy etib bo'lmasligini o'z dramalari va maqolalarida aks ettiradi.

Xulosa, jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Jadidchilik harakatlari qatorida Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'lim-tarbiya, millat istiqboli yo'lida amalga oshirgan ishlari, bizga qoldirgan adabiy merosi bugungi kun uchun ham xizmat qilayotganligi e'tirofga loyiqdir. Ayniqsa, til masalasiga jiddiy e'tibor qaratganligi, uni haqiqiy ona tiliga aylantirish borasidagi ishlarida ham Behbudiyning naqadar o'z xalqining jonkuyar, fidoyi insonlaridan biri ekanligini ko'rsatib turadi.

Bugungi kunda ta'lim inson va jamiyatni rivojlantirishning eng muhim omiliga aylangan. Ta'lim muassasalari madaniy merosni avloddan avlodga uzatish, kasbiy tayyorgarlikning asosiy shakliga aylangan. Ta'lim shaxs tomonidan bilimlarni egallashiga xizmat qiladi, unga ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishga yordam beradi, iqtisodiy faol hayotga kirishida dastak bo'ladi. Ta'lim insonni rivojlantirishning eng muhim omili sifatida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va gumanitar muammolar butun majmuasini hal etishga katta ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. 2022 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asoslangan «2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi

ustuvor yoʻnalishi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlanib 34 ta maqsadni qamrab olgan. Inson kapitalini rivojlantirishdagi asosiy boʻgʻinlardan biri oila hisoblanadi.

Chunki inson kapitalining barcha tarkibiy qismlari oila oʻz farzandiga kiritadigan investitsiya orqali shakllantiriladi va koʻpaytiriladi. Ijtimoiy kapital va resurslar manbalari vujudga kelishida oilaning oʻrni beqiyos. Oʻz navbatida, sogʻlom oila va farzandlar davlat uchun investitsiya hisoblanadi. Oila farovonligi - moddiy farovonlik qatorida oila aʼzolari va farzandlar salomatligi, ijtimoiy turmush tarzi sogʻlomligi, tinchligi bilan belgilanadi. Jadid mutafakkirlari esa bu borada birinchi oʻringa tarbiya va taʼlini asos qilib qoʻyadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шавкат МИРЗИЁЕВ. Ўзбекистон Республикаси Президенти Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻqituvchi va murabbiylar kuniga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 1-oktabr 2020-yil
3. МАҲМУДХОҶА БЕҲБУДИЙНИНГ ПЕДАГОГИК МЕРОСИ Z. B. Axrarova OʻzMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Pedagogika va umumiy psixologiya" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
4. "ЗАРАФШОН" ГАЗЕТАСИ КУТУБХОНАСИДАН Буюк маърифатпарвар Маҳмудхўжа БЕҲБУДИЙ мақолалар тоʻplami таваллудининг 145 йиллигига 2020 й
5. Махмудхоʻжа Behbudiy. (1999). (Tanlangan asarlar). T., "Maʼnaviyat".
2. Qosimov F.S. (2022). Yangilanayotgan Oʻzbekistonda inson kapitalini rivojlantirish omillari. T., "Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati".
3. Gʻaffarova G.Gʻ. (2022). Yangilanayotgan Oʻzbekistonda inson kapitalini rivojlantirish: imkoniyat va istiqbollari. T., "Ilm-ziyo-zakovat".
4. Grachev S.A., M.A.Gundorova, V.A.Moshnov. (2016). Investitsii v chelovecheskiy kapital. "Vladimir". 5. I.N.Shapkin. (2017). Chelovecheskiy kapital: teoriya, istoricheskiy opyt i perspektivy razvitiya. "Moskva".
6. Mirzoxid Latipovich Sharipov. (2022). Inson kapitali taraqqiyotida taʼlim, sogʻlik va gender tenglikning ahamiyati. «Academic research in educational sciences». Volume 3. Issue 5. 648-659.